

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY — TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI OTASI

Maksudova Shahlo

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlari va ularning ahamiyati, jadidchilik maktablari uchun yozilgan darsliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu asarlarning ahamiyati va ularning mazmuni, bugungi kundagi o'rni aks etgan.*

Kalit so'zlar: *ma'rifat, millat, dunyo, din, ilm-ma'rifat, ta'lim.*

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY IS THE FATHER OF THE MODERN MOVEMENT OF JADIDISM

Maksudova Shahlo

student of International islamic academy of Uzbekistan

Annotation: *The article contains information about Mahmudkhoja Behbudi's works and their importance, as well as textbooks written for Jadidism schools. Also, this article are reflected the significance of these works, their content, and their place today.*

Key words: *enlightenment, nation, world, religion, knowledge, education.*

KIRISH

Jadidchilik - XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqalgan.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy

valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

ASOSIY QISM

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Turkistonda bu harakatning ko'zga ko'ringan vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla, Asadullaxo'jayev, Munavvarqori, Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbutayev, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Eshonxo'ja Xonxo'jayev, Is'honxon to'ra Ibrat; Buxoroda - Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Mussa Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo'jayev, Mirkomil Burxonov, Muhitdin Rafoat, Muhitdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov va boshqalar; Xivada – Boboqun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Avaz O'tar, Husayn matmurodov, Nazar Sholiqorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Pozachi, Otajon Sadayev, Bekjon Raximov, Muhammad Devonzoda va b. lar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat halq ommasining ma'rifatli qilishga, balki mustaqillik g'oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo'shdilar.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "Jadidlarning rahbari" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo'lgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug'ullandi. 1904-1909-yillarda u o'zbek va tojik tillarida "Risolayi asbobi savod", "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" (Qisqacha umumiy geografiya), "Kitobat ul-atfol" (Bolalar maktublari), "Muxtasar tarixi islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jug'rofiyayi umroniy" (Aholi geografiasiga kirish), "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy" (Rossiyaning qisqa- geografiyasi) kabi darsliklarini yaratdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning eng mashhur kitobi "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiyai" darsligi hisoblanadi. "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiyai" darsligida Behbudiy o'sha davrdagi boshqaruv usullari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Zero, millat yoshlarining siyosiy ongini yuksaltirish, avlod dunyoqarashini o'stirish ziyolilar oldida turgan dolzarb vazifalardan, taraqqiyotning muhim omillaridan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun jamoat ahlini ilm ma'rifatli qilish uchun har bir inson o'zining tilini rivojlantirishi kerak deb aytganlar. Ya'ni inson qancha ko'p tilni bilsa, shuncha ko'p foyda bo'ladi, insonning dunyoqarashi rivojlanadi, inson ma'rifatning yuqori choqqisiga chiqishga harakat qiladi. Mutafakkirning – "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush sharoitlariga ko'ra to'rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlangan.

Xususan, bu haqida Mahmudxo'ja Behbudiy shunday deganlar: "Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrisarlarni taqriru tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqriru tarjimani forsiyiligi xila ajibdur kerak deb aytgan edilar".

Vatanni anglash, unga muhabbatni his qilish uchun tarixga nazar tashlamoq kerak. Behbudiy ta'biri bilan aytganda, "Moziy – haqiqat tarozisidir". Mustaqillik, xotirjamlik, farovonlikning qadriga yetish uchun bu kunlarga qanday yetilganini, qancha-qancha vatanparvar insonlarning shahid ketganini, erk va ozodlik yo'lida cheksiz zahmat chekilganini bilmoq lozim. Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan aytilgan "Haq olinur, berilmas!" xitobi, Abdurauf Fitratning "Keling, birlashayluk, oramizdagi shaxsiy tortishmalar, sinfiy ayriliqlardan ko'z yumaylik!" kabi xalqni birlashtirish yo'lida qilgan da'vatlari, qaysidir ma'noda, mustaqillikka erishishimizda muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zini Behbudiyning ma'naviy o'g'li deb bilgan samarqandlik jadid Vadud Mahmudning Mahmudxo'ja Behbudiy haqida qoldirgan fikri diqqatga sazovordir:

"Mahmudxo'ja Behbudiy kim edi...(Avval kim edi)?

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston degan o'lkaning boshlig'i edi.

Mahmudxo'ja Turkistonning yo'l boshchisi edi.

Mahmudxo'ja o'zining Turkiston bolasi ekanligini tushungan bir yigit edi. Shuning uchun u bizga, Turkistonga har narsa edi. Mahmudxo'ja Turkistonning yangilik davri tarixida yorug' bir chirog' edi. Mahmudxo'janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o'run olishga munosib bir otdir".

Sadriddin Ayniy esa uni "Turon dohiysi" va "oliyshon ustod" deb ulug'lagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145-yilgini munosib nishonlash haqida ta'kidlab o'tgan edi. O'tgan asrning boshlarida Turkiston o'lkasining har tomonlama mustaqilligi, rivojlanishi, o'lka aholisining ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish orqali o'sha vaqtlarda jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilishini orzu qilgan va o'z hayotini mana shu ishlarga bag'ishlab, xalq va Vatan

taraqqiyoti yo'lida shahid bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy nomi, hayoti va ijodi bugun davlatimiz va xalqimizning yuksak e'tiborda hisoblanadi.

XULOSA

Yurtimizda asrlar davomida yuksalib, qadrlanib shakllangan milliy va diniy qadriyatlarimizni jamiyat ongiga singdirish orqali ta'lim tizimi, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodini o'rganish, ilmiy merosini tadqiq etish vositasida bugungi yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning shartlaridan biri va ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://daryo.uz/2020/10/21/til-va-dil-birligi-mahmudxoja-behbudiyning-til-borasidagi-qarashlari>
2. Abdirashidov Z. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent: 2022.
3. Qosimov B. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015-yil 3-son
4. Ibrohim, Nig'matullayev. "Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari va uning ahamiyati." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1.2 (2022): 43-46.
5. Xujaev M. (2020) Mahmudkhuj Behbudiy as a leader of jadid reforms," The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 3, Article <https://uzjournals.edu.uz/iiaw/vol2020/iss3/4>
6. www.mudofaa.uz